
SAXOVAT, HAMJIHATLIK – ULUG‘ FAZILAT

Koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish va unga qarshi kurashish davrini talafotsiz o‘tkazish, xalqimizni moddiy hamda ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida barcha tashkilot va korxonalar, tadbirkorlar xayr-saxovat ishlarini boshlab yuborgan.

Bugun Farg‘ona shahridagi 4 ta sektor kesimida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi xodimlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari faollari hamda homiylar tomonidan jami 301 nafar yakka yolg‘izlar, keksalar, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar holidan habar olindi va oziq-ovqat mahsulotlari berildi. Mazkur xayriya tadbirlariga 30 mln so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi.

2020-04-06 20:58:18